

# **Ulug'bek Qosimov: Kelajak avlod oldida qarzdor bo'Imasligimiz va musaffo tabiatni asrashimiz uchun bugun ko'proq daraxt ekishimiz kerak!**



Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz tumanining "Yangiobod" mahallasi hududidagi 40 hektar maydonda tashkil etilayotgan "Hokimlik bog'i"ga tashrif buyurib, viloyatning 15 ta hududida tashkil etilgan hokimlik bog'lariga ko'chat ekish ishlariga start berdi.

Hududlardagi mas'ullar bilan videokonfrentsaloqa shaklida muloqot qilinib, kuzgi daraxt ekish mavsumini uyushqoqlik bilan o'tkazish, voha iqlimidan kelib chiqqan holda ko'chatlarni tanlash, sifatli ekish, vaqtida parvarishlash va sug'orish uchun mas'ullar biriktirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berildi.

Shundan so'ng, viloyat rahbari yangi bog' hududida ko'chat ekish ishlarini boshlab berdi. Shu kunlarda viloyatimizning barcha hududlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuzgi daraxt ekish mavsumi qizg'in davom etmoqda.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)